# NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA BUYRUQ GAPLARDA MONOPREDIKATIVLIK

**Jabbarov Abdug'afur Abdug'aniyevich**
O'qituvchi, Samarqand davlat chet tllar instituti
abdugafurjabborov@gmail.com

**Anotatsiya:** Maqolada buyruq gaplarda monopredikativlik va ularning nutqda namoyon bo'lishi nemis va o'zbek tillari misolida o'rganish natijalari yoritilgan. Buyruq ma'nosining sintaktik ifodasi tarixan monosemantik gaplar bilan bog'liq bo'lib, ularda bitta kommunikativ maqsad – nutq yo'naltirilgan shaxsni muayyan harakat yoki holatga undash ustuvor hisoblanadi. Shu sababli buyruq gaplar ko'pincha monopredikativ xarakter kasb etadi. Ushbu maqolada bu borada muallifning shaxsiy munosabatlari aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** monopredikativ gap, buyruq gaplar, semantik tahlil, nemis tili sintaksisi, monopredikativ qurilmalar, kommunikativ, sodda gap, ega, kesim, monopredikativlik.

**Monopredicativity in imperative sentences in German and Uzbek**

Jabbarov Abdugafur Abduganievich
Teacher, Samarkand State Institute of Foreign Languages

**Annotation:** The article presents the results of studying monopredicativity in imperative sentences and their manifestation in speech using the example of German and Uzbek languages. The syntactic expression of the meaning of the command has historically been associated with monosemantic sentences, in which one communicative goal is the priority - to encourage the person to whom the speech is addressed to a certain action or state. Therefore, imperative sentences often acquire a monopredicative character. This article reflects the author's personal attitude to this issue.

**Keywords:** monopredicative sentence, imperative sentences, semantic analysis, German syntax, monopredicative devices, communicative, simple sentence, possessive, participle, monopredicativity.

**Монопредикативность в повелительных предложениях немецкого и узбекского языков**

Джаббаров Абдугафур Абдуганьевич
Преподаватель, Самаркандский государственный институт иностранных языков

**Аннотация:** В статье представлены результаты исследования монопредикативности в повелительных предложениях и их проявления в речи на примере немецкого и узбекского языков. Синтаксическое выражение значения повелительного наклонения исторически ассоциировалось с однозначными предложениями, в которых приоритет отдается одной коммуникативной цели — побудить человека, к которому обращена речь, к определенному действию или состоянию. Поэтому повелительные предложения часто приобретают монопредикативный характер. Данная статья отражает личное отношение автора к этому вопросу.

**Ключевые слова:** монопредикативное предложение, повелительные предложения, семантический анализ, немецкий синтаксис, монопредикативное средство, коммуникативное, простое предложение, притяжательное, причастие, монопредикативность.

Monopredikativ birliklar *maqsadiga ko‘ra* darak gap, so‘roq gap, buyruq-istak va his-hayajon bildirish mumkin. Albatta, **darak gap** axborot beradi (*U universitetga ketdi.*). **So‘roq gap** esa savolni anglatadi (*U keldimi?*). **Buyruq-istak gap** buyurish, iltimos, chaqiriqni anglatadi (o‘zbekcha: *Kiring!* nemischa: *Komm!*). **His-hayajon gap** esa emotsional munosabatni ifodalaydi (*Qanday go‘zal kun!*).

Tilning kommunikativ tizimida buyruq gaplar alohida o‘rin egallaydi. Ular so‘zlovchining muayyan harakat yoki holatni amalga oshirishga qaratilgan irodasini ifodalovchi sintaktik birliklar hisoblanadi. Buyruq gaplarning mazmun-mohiyati buyruq-istak intonatsiyasi hamda maxsus leksik va grammatik vositalar yordamida yuzaga chiqadi. Bunday gaplarda asosiy maqsad uni muayyan harakatni bajarishga undashdan iborat bo‘ladi.

A.E. Suprunning ta’kidlashicha, nutqda so‘zlovchi ko‘pincha tinglovchining xatti-harakatiga ta’sir etishni ko‘zlaydi. Bunday holatda nutqning apellyativ funksiyasi namoyon bo‘lib, uning eng muhim ko‘rinishlaridan biri rag‘batlantirish hisoblanadi. Rag‘batlantirish orqali tinglovchi ma’lum topshiriqni bajarishga, ma’lum bir harakatni amalga oshirishga yoki aksincha, undan voz kechishga yo‘naltiriladi. Shu jihatdan buyruq gaplar insonlar o‘rtasidagi muloqotning faol va ta’sirchan vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Nemis tilidagi badiiy asarlar tahlili nominativ buyruq gaplarning keng qo‘llanilishini ko‘rsatadi. Masalan, *„Achtung!“*, *„Vorsicht!“*, *„Ruhe!“*, *„Mut, Kamerad!“*, *„Schluß mit dem Krieg!“* kabi birliklar kommunikativ vaziyatda tinglovchini muayyan harakatga undash, ogohlantirish yoki da’vat etish vazifasini bajaradi. Ushbu gaplar tarkibida fe’lning mavjud emasligiga qaramay, ular to‘laqonli buyruq mazmunini ifodalab, mustaqil kommunikativ birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Buyruq ma’nosining sintaktik ifodasi tarixan monosemantik gaplar bilan bog‘liq bo‘lib, ularda bitta kommunikativ maqsad –muayyan harakat yoki holatga undash ustuvor hisoblanadi. Shu sababli buyruq gaplar ko‘pincha monopredikativ xarakter kasb etadi. Ularning mazmuniy markazida so‘zlovchining xohish-irodasi va tinglovchining bajarishi lozim bo‘lgan harakat haqidagi tasavvur mujassamlashadi. Natijada buyruq gaplar nafaqat sintaktik, balki pragmatik jihatdan ham nutqning eng faol va ta’sirchan vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Tilshunoslikda buyruq gaplar, boshqa gap turlari singari, mantiqiy jihatdan ikki a’zoli tuzilma sifatida qaraladi. Biroq ularning ikki a’zoliligi darak gaplardagidan sezilarli darajada farq qiladi. Darak gaplarda subyekt va predikat o‘rtasidagi munosabat voqelikdagi hodisaning mavjudligi yoki mavjud emasligini tasdiqlash va inkor etishga xizmat qilsa, buyruq gaplarda bu munosabat so‘zlovchining irodasini ifodalash bilan bog‘lanadi. Ya’ni, buyruq gapning markazida voqea-hodisaning mavjudligi emas, balki tinglovchini muayyan harakat yoki holatni amalga oshirishga undash maqsadi turadi.

Shu bois buyruq gaplarda subyekt va predikat o‘rtasidagi aloqa harakatning bajarilishi lozim bo‘lgan shaxs bilan bog‘liq holda shakllanadi. Bu yerda harakatning bajaruvchisi ko‘pincha tinglovchi bo‘lib, u bevosita yoki bilvosita tarzda ifodalanadi. Imperativ mazmunning muhim belgilaridan biri ham aynan tinglovchiga qaratilganlikdir. Buyruq har doim kelajakda amalga oshirilishi kutilayotgan harakatni nazarda tutadi va shu jihati bilan unda kelajakdagi holat yoki voqealarga yo’naltiriladi.

Buyruq gaplarda harakat obyekti odatda oddiy sintaktik vositalar yordamida ifodalansa, harakat subyekti ko‘pincha murojaat shaklida namoyon bo‘ladi. Masalan, *„Schluß mit der Plauderei!“* gapida buyruqning tinglovchii yashirin holda ifodalangan bo‘lsa, *„Ein Sprung, Karl!“* misolida tinglovchi bevosita murojaat orqali ko‘rsatilgan. Bu holat buyruq gaplarning pragmatik yo‘nalishini kuchaytirib, nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi kommunikativ munosabatni yanada aniqroq ifodalaydi.

Nominativ gaplarda semantik va strukturaviy munosabatlar turli grammatik vositalar orqali yuzaga chiqadi. Ayrim hollarda buyruq mazmuni bevosita ifodalansa, boshqa vaziyatlarda u bilvosita tarzda anglashiladi. Natijada buyruq ma’nosini ifodalovchi nominativ konstruktsiyalar turli semantik ko‘rinishlarga ega bo‘ladi va irodaviy munosabatlarning keng doirasini qamrab oladi.

Buyruq ma’noga ega bo‘lgan noverbal konstruktsiyalar tarkibida buyurilayotgan harakat yoki holat to‘g‘ridan-to‘g‘ri nomlanishi mumkin. Masalan, *„Aufstehen!“*, *„Ruhe!“*, *„Hilfe!“*, *„Vorsicht!“* kabi birliklarda harakat yoki

holatning o‘zi buyruq mazmunining markazi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday gaplar qisqa shaklda bo‘lishiga qaramay, kommunikativ jihatdan to‘liq va mustaqil ma’no ifodalaydi.

Ba’zi hollarda esa buyurilgan harakat bevosita nomlanmaydi, balki uning yo‘nalishi yoki natijasi ko‘rsatiladi. Masalan, *„Auf!“* yoki *„Hinaus!“* kabi birliklarda harakatning o‘zi emas, balki uning yo‘nalishi ifodalanadi. Shunga qaramay, kontekst yordamida tinglovchi qanday harakat nazarda tutilayotganini osongina anglay oladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bunday nominativ buyruq gaplar turli semantik guruhlarga mansub bo‘lishi mumkin. Ular harakat jarayonini, sifatni, miqdorni yoki muayyan predmetni ifodalashi bilan xarakterlanadi. Shu tariqa, imperativ nominativ konstruktsiyalar nafaqat buyruq-istak modalligini ifodalovchi vosita, balki tilning sintaktik va kommunikativ imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim birliklardan biri sifatida maydonga chiqadi. Ularning qisqa, ixcham va ta’sirchan shakli badiiy hamda og‘zaki nutqda keng qo‘llanishiga zamin yaratadi.

Zamonaviy nemis tilida buyruq ma’noni ifodalovchi nominativ gaplar sintaktik va semantik jihatdan rang-barang ko‘rinishlarga ega. Ayniqsa, ekzistensial-ob’ektiv semantikaga ega bo‘lgan nominativ konstruktsiyalar alohida qiziqish uyg‘otadi. Bunday gaplar ko‘pincha fe’lsiz shaklda qo‘llanib, kommunikativ vaziyatda mustaqil mazmun ifodalash qobiliyatiga ega bo‘ladi. Masalan, *„Mein Wagen!“*, *„Licht!“*, *„Zwei Bier!“* kabi birliklar tashqi ko‘rinishidan oddiy nomlash konstruktsiyasi bo‘lib tuyulsada, muayyan nutqiy vaziyatda buyruq, talab yoki istak mazmunini ifodalashi mumkin.

Mazkur konstruktsiyalarning asosiy qismi odatda nominativ shakldagi ot bilan ifodalanadi. Ayrim hollarda esa ot Akkusativ (tushum kelishigi) shaklda ham qo‘llanadi. Masalan, *„Meinen Wagen!“* va *„Mein Wagen!“* shakllari mazmun jihatidan yaqin bo‘lsa-da, ularning sintaktik tabiati turlicha talqin qilinadi. Akkusativ shakldagi birliklar ko‘pincha elliptik konstruktsiyalar sifatida qaralsa, nominativ shakldagi birliklar kontekstdan mustaqil holda ham alohida nominativ gap sifatida faoliyat ko‘rsata oladi.

Shuni ta’kidlash joizki, bunday gaplarni har doim ham yashirin fe’lga ega elliptik birlik sifatida izohlash mumkin emas. Ayrim hollarda fe’lni tiklash semantik jihatdan murakkab yoki hatto imkonsiz bo‘lib qoladi. Masalan, *„Nur keinen Kognak!“* va *„Nur keinen Neid!“* konstruktsiyalarini qiyoslaganda, ikkinchi misolning semantik mustaqilligi ancha kuchli ekanligi ko‘zga tashlanadi. Chunki *Neid* (hasad) abstrakt va protsessual mazmunni ifodalab, o‘z-o‘zicha tugallangan kommunikativ birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Imperativ nominativ gaplarning rivojlanishida ekzistensial semantikaga ega bo‘lgan ikki tarkibli konstruktsiyalarning, xususan, *„es gibt“* modeli asosida shakllangan gaplarning ta’siri ham seziladi. Natijada nominativ va akkusativ shakllarning funksional yaqinlashuvi yuz beradi. Bu esa nominativ gaplarning sintaktik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Nasriy matnlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy nemis tilida imperativ nominativ gaplarning qo‘llanish doirasi tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, ekzistensial-ob’ektiv semantikaga ega bo‘lgan konstruktsiyalar faol ishlatiladi. Ular kommunikativ vaziyatga qarab turlicha shakllanadi va tinglovchining ifodalanish darajasiga ko‘ra bir necha guruhlarga ajratiladi.

Birinchi guruhga tinglovchii bevosita murojaat orqali ifodalangan nominativ gaplar kiradi. Masalan, *„Ruhe, Kurt!“* yoki *„Steh auf, mein Junge!“* kabi konstruktsiyalarda buyruq qaratilgan shaxs aniq ko‘rsatilgan bo‘ladi. Ikkinchi guruhda tinglovchi maxsus nomlanmaydi, biroq fe’l shakli yoki olmoshlar orqali anglashiladi. Uchinchi guruhda esa tinglovchi na gap tarkibida, na grammatik vositalar orqali ifodalanadi; u faqat kontekst yoki nutqiy vaziyatdan kelib chiqib aniqlanadi.

Imperativ nominativ gaplarda tinglovchining ifodalanish usuli muhim pragmatik ahamiyat kasb etadi. Ayrim hollarda murojaatning ochiq ifodalanishi kommunikativ maqsadning aniqligini ta’minlaydi. Masalan, *„Arbeiter und Bauern! Krieg dem Kriege!“* kabi misollarda murojaat keng auditoriyaga qaratilgan bo‘lib, undov va da’vat mazmunini kuchaytiradi. Boshqa hollarda esa tinglovchi vaziyatdan anglashilib, gapning ta’sirchanligi aynan shu implisitlik orqali yuzaga chiqadi. Masalan, *„Ruhe!“*, *„Vorsicht!“*, *„Hilfe!“* kabi birliklarda buyruq yoki ogohlantirish kimga qaratilgani kontekst orqali aniqlanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, imperativ nominativ gaplarning shakllanishi va qo‘llanishida kontekst hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Kontekstga qarab ular bir a’zoli yoki ikki a’zoli konstruksiyalar sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, *„Schluß mit dem Theater, Kameraden!“* konstruktsiyasida buyruq, tinglovchi va obyekt ochiq ifodalangan bo‘lsa, *„Schluß!“* gapida buyruq mazmuni yagona komponent orqali beriladi. Shuningdek, *„Mein Stuhl, Kurt!“* yoki *„Ein Lied, Otto!“* kabi gaplarda buyruq harakatning obyektini nomlash orqali ifodalanadi.

Demak, buyruq gaplar zamonaviy nemis tilining o‘ziga xos sintaktik hodisalaridan biri bo‘lib, ular buyruq-istak modalligini ixcham, ta’sirchan va kommunikativ jihatdan samarali tarzda ifodalash imkonini beradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy nemis tilidagi buyruq gaplarning monopredikativlik semantik va kommunikativ yaxlitligini ta’minlab, ularda yagona buyruq, talab,

iltimos yoki undov mazmunining ifodalanishiga xizmat qiladi. Shu sababli buyruq gaplarning aksariyati sodda va bir predikatsiyali sintaktik birliklar sifatida tavsiflanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдураҳмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси (Синтаксис). Олий ўқув юртлари талабалари ва ўқитувчилари учун. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –248 б.
2. Duden Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. – Mannheim: Dudenverlag, 2016. – 1344 S.
3. Duden: in 12 B. /C. Fabricius-Hansen, P. Gallmann, P. Eisenberg, R. Fiehler, J. Peters. –Mannheim: Bibliographisches Institut, 2009. – B. 4: Die Grammatik: Unentbehrlich für richtiges Deutsch. – 2009. –S.504. (–1343 S.)
4. E.Shendels. Deutsche Grammatik. - Moskau, 1992. 272-287 b.
5. Nurmonov A., Maxmudov N., Axmedov A., Solixo‘jaeva S. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - Toshkent: Fan, 1992. -294 b.
6. O‘zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. - Toshkent, "Fan", 1976. -560 b.
7. Xayrullayev X. Ob osobennostyax izucheniya ob'ekta rechevoy lingvistiki. Inostrannaya filologiya: yazo‘k, literatura, obrazovanie.) 2019. (2 (71), 17-20. https://inlibrary.uz/index.php/ foreign_philology/article/view/921
8. Хайруллаев Х. Тилшунослик назарияси. –Тошкент 2022. – 254 б.
9. Хайруллаев Х.З. Нутқ бирликларининг поғонали муносабати. – Самарқанд, 2008. –80 б.